



# Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



**2021- yilning  
yanvar-oktabr  
oylarida  
Qashqadaryo viloyat  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi –  
58,6 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
3 178,1  
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
10 685,1  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
70,5 %**


**Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari -  
118,1 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlarning  
o'sish sur'atlari –  
115,9 %**



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 685,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 339,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,1 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



# Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>10 685,1</b>	<b>118,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	493,9	120,7
Moliyaviy xizmatlar	1 764,4	128,6
Transport xizmatlari	2 359,3	121,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 256,6	118,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	295,3	105,9
Savdo xizmatlari	3 437,1	111,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	267,1	120,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	382,0	140,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	140,0	123,8
Ijara xizmatlari	283,7	122,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	362,7	118,6
Shaxsiy xizmatlar	349,2	116,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	119,1	106,0
Boshqa xizmatlar	431,3	106,4

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da  
**Nisbatan past ko'rsatkich**

**Nisbatan yuqori ko'rsatkich**  
**Savdo xizmatlari**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **32,2 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport (**22,1 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,5 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**4,6 %**) bo'yicha qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Memorchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,1 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,3 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,2 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-oktabr oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**40,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,6 %**), sog'liqni saqlash (**23,8 %**), ijara xizmatlarida (**22,7 %**), transport xizmati (**21,1 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (**20,7 %**), hamda, Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarida (**20,0 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlarida (**5,9 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




●●● 2020- y. yanvar-oktabr

◆◆◆ 2021- y. yanvar-oktabr

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **129,9** %. Memorchilik sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **69,4** % .

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,2 %** ni tashkil etib, bu **3 437,1mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **2 777,1mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmning **33,3%** ga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2021-y.  
yanvar-  
oktabr

3 437,1mlrd.  
so'm



2 777,1mlrd.  
so'm

660,0  
mlrd. so'mga

Hajmning  
o'sishi

111,0 %

O'sish  
sur'ati

97,2 %

2020-y.  
yanvar-  
oktabr





2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **84,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **10,8 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)




**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi **84,4 %** ga yetgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 764,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 344,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,5** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning ulushi **16,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **420,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **129,9** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **85,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** oralg'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **9,3 %** ini tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar



Yordamchi moliyaviy  
faoliyat



Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar


**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** ga to'g'ri kelgan.  
Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **6,6 %**.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020- y.  
yanvar-oktabr**

406,5  
mlrd. so'm

110,4 %

4,9 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi  
ulushi

Hajmning o'sishi

87,4 mlrd. so'mga

**2021- y.  
yanvar-oktabr**

493,9  
mlrd. so'm

120,7 %

4,6 %


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.  
yanvar-oktabr



2021- y.  
yanvar-oktabr



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari


**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **97,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **382,0 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,6 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **140,6 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.  
yanvar-oktabr




140,0 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

1,3 %




Xizmatlarning  
jami hajmidagi ulushi

123,8 %




O'sish sur'ati


2020- y.  
yanvar-oktabr



103,0 mlrd. so'm



1,2 %



97,4 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

242,7 mlrd.  
so'm

295,3 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

2020- y.  
yanvar-oktabr

2021- y.  
yanvar-oktabr

90,4 %

105,9 %

O'sish  
sur'ati

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **295,3** mlrd. so'mga ko'paydi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2020- y.  
yanvar-  
oktabr

2021- y.  
yanvar-  
oktabr



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,3** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,8** % ni tashkil etgan.





# Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



**2021- yil yanvar-oktabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Qashqadaryo viloyati *)</b>	<b>10 685,1</b>	<b>118,1</b>	<b>102,4</b>
Qarshi sh.	2 847,4	117,7	101,2
Shahrisabz sh.	610,5	120,4	100,1
<b>tumanlar:</b>			
G'uzor	523,9	117,6	102,6
Dehqonobod	366,3	117,9	108,4
Qamashi	504,0	118,0	104,0
Qarshi	575,7	119,1	100,4
Koson	734,5	117,2	102,8
Kitob	752,5	118,5	103,0
Mirshikor	409,7	119,1	100,8
Muborak	529,7	114,5	104,2
Nishon	398,4	119,3	105,4
Kasbi	462,9	120,1	105,0
Chiroqchi	657,2	119,4	103,2
Shahrisabz	767,6	119,7	100,3
Yakkabog'	544,8	119,7	100,3

\*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Qarshi shahri tashkil etdi – **26,6** % (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **29,2** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Dehqonobod tumanida – **3,4** % (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **3,4** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 178,1  
ming so'm

Hajmning  
o'sishi

648,4  
ming so'mga

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 178,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,9 %** ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 529,7** ming so'mni tashkil etgan.

115,9 %

O'sish sur'ati

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,5 %** da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

21 655  
birlik



4 336  
birlikka  
o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

125,0 %



58,6 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi






**2021- yil yanvar-oktabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **58,6 %**, sanoat **13,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **18,9 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,4 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **60,4 %** ni, sanoat **13,7 %** ni, qurilish **11,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **14,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

## 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**47,4 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,6 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **3,6 %** ga teng bo'ldi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0** ni tashkil etdi.

Savdo – 47,4

Boshqa turdagi  
xizmatlar – 34,2

Yashash va ovqatlanish  
– 8,2

Tashish va saqlash – 4,6

Axborot va aloqa – 2,0

Sog'liqni saqlash – 3,6


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **70,5 %** ni tashkil etdi.

## 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **77,3 %** ga to'g'ri keldi.

1- noyabr  
holatiga

2020- y.

72,6 %

2021- y.

77,3 %

Xizmatlar sohasi  
statistikasi  
Tel.: 75-221-44-32